



UDK:372.881.111.1

**Shuxrat AKRAMOV,**  
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti  
E-mail: [interfutbolful@gmail.com](mailto:interfutbolful@gmail.com)

O'zDJTU dotsenti, PhD D.Djurayev taqrizi asosida

### BO'LAJAK CHET TIL O'QITUVCHISINING METODIK TAYORGARLIGINI VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL I

Annotsatsiya

Ushbu maqolada muallif bo'lajak chet til pedagogining xorijiy til o'rgatish jarayonida zarur bo'ladigan bilim, malaka, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur hisoblangan metodik tayorgarlik jarayoni variativ yondashuv asosida tashkil qilish chuqur tahlil qiladi. Maqola muallifi tomonidan variativ yondashuv asosida shakllantirilgan pedagogik modelda taklif qilinayotgan pedagogik modelda maqsad, mazmun, metodlar, vositalar, shakllar va natijalar aniqlashtiriladi.

**Kalit so'zlar:** Variativ yondashuv, chet til, metod, texnologiya, ingliz tili, Carol Ann Tomlinson.

### THE PEDAGOGICAL MODEL OF IMPROVING THE METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS BASED ON A DIFFERENTIATED APPROACH

Annotation

In this article, the author deeply analyzes the organization of the methodological preparation process based on the differentiated approach, which is considered necessary for the development of knowledge, skills, abilities and competencies of future foreign language teachers in the process of teaching a foreign language. The pedagogical model created by the author of the article, formulated on the basis of the differentiated approach, clarifies the goals, content, methods, tools, forms and results.

**Key words:** Differentiated approach, foreign language, method, technology, English, Carol Ann Tomlinson.

### ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ НА ОСНОВЕ ВАРИАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье автор глубоко анализирует организацию процесса методической подготовки на основе вариативного подхода, который считается необходимым для развития знаний, навыков, умений и компетенций будущих преподавателей иностранных языков в процессе обучения иностранному языку. Предложенная автором статьи педагогическая модель, сформулированная на основе вариативного подхода, наглядно демонстрирует цели, содержание, методы, средства, формы и результаты данного подхода.

**Ключевые слова:** Вариативный подход, иностранный язык, метод, технология, английский язык, Кэрол Энн Томлинсон.

**Kirish.** Bo'lajak chet til o'qituvchisining metodik tayorgarligini variativ yondashuv asosida takomillashtirish boshqa o'qitish yondashuvlar bilan solishtirganda, jarayonini tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish, moslashuvchan va tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, mustaqil o'qish, izlanish, muammolarni hal qilish kabi asosiy ko'rsatkichlar yagona integrativ yondashuvda uyg'unlashtiriladi. Variativ yondashuv o'quv jarayonida kommunikativ, kognitiv va ijodiy kompetensiyalarni parallel rivojlantirishga xizmat qiladi hamda talabalarni nafaqat metodik tayorgarlik bilan, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llash malakalari bilan ham ta'minlaydi. Bu esa ta'lim oluvchilarning metodik tayorgarlik jarayonida tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalar va kasbiy kommunikatsiyada samarali ishtirok etish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ushbu maqola muallifi tomonidan bo'lajak chet til o'qituvchisining metodik tayorgarligini variativ yondashuv asosida yaratgan takomillashtirish modeli (2.1-rasm) quyidagi umumlashgan vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi:

1. Metodik vazifa bu metodik bilimlarni chuqurlashtirish va integratsiyalash vazifasi bo'lib, bo'lajak o'qituvchining zamonaviy til o'qitish nazariyalari, metodlari va texnologiyalari haqidagi bilimlarini mustahkamlash, shuningdek, til o'qitish jarayonida lingvistik, psixologik va

pedagogik bilimlarni integratsiyalash orqali metodik bilimlarini chuqurlashtirish va uyg'unlashtirish.

2. Individuallashtirilgan vazifa bu individuallashtirilgan o'qitishni tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish vazifasi bo'lib, talabning shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari va til o'rganish uslublarini hisobga olgan holda o'qitishni loyihalash, hamda variativ yondashuv asosida moslashtirilgan o'quv usullarini qo'llay olish orqali individuallashtirilgan o'qitishni tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish.


3. Innovatsion va refleksiv vazifa bu innovatsion va refleksiv fikrlashni rivojlantirish vazifasi bo'lib, yangi pedagogik texnologiyalarni tanlash va joriy etish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish, shuningdek, o'qitish natijalarini tahlil qilish va o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish orqali innovatsion va refleksiv fikrlashni rivojlantirish.

4. Moslashuvchan va kompetensiyaviy vazifa bu moslashuvchan va kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish vazifasi bo'lib, turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda chet tilini o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish orqali moslashuvchan va kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish.

5. Professional faollik vazifasi bu professional faollik va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash vazifasi bo'lib,

o'qituvchining kasbiy o'sishi va o'zini o'zi rivojlantirish strategiyalarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-ta'limiy tashabbuslarda faol ishtirok etishga tayyorlikni rivojlantirish orqali professional faollik va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash. Pedagogik modellashtirish tajribasini tahlil qilib, shuningdek, bo'lajak chet til o'qituvchisining metodik tayyorgarligini variativ yondashuv asosida takomillashtirish uchun tanlangan

tarkibiy qismlarini (bilim, ko'nikma, yondoshuv, refleksiya) takomillashtirish zaruratidan kelib chiqib, biz ta'lim jarayoni qaysi tamoyillarga asoslanishini aniqlaymiz [1]. Ma'lumki, zamonaviy universitetda chet tilini o'itish an'anaviy tarzda quriladigan umumiy didaktik tamoyillar mavjud (faollik, individualizatsiya, moslashuvchanlik, innovatsiya).



Shu bilan birga, tadqiqotga uslubiy yondashuvlar (variativ, faoliyat, kompetensiyaviy, integrativ, reflektivga yo'naltirilgan) asosida bo'lajak chet til o'qituvchisining metodik tayyorgarligini variativ yondashuv asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini variativ yondashuv asosida samarali o'qitish uchun metodik tizimni ilmiy asoslashda bir necha asosiy komponentlarni ajratib ko'rsatish zarur. Bu komponentlar til o'rganishning bilim, ko'nikma, yondashuv, refleksiya jihatlarini qamrab olib, o'qituv jarayonini kompleks, integratsiyalangan va maqsadli rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir komponent pedagogik, psixologik va madaniy asosda o'zaro bog'liq holda metodik tayyorgarlik sifatini oshirishga xizmat qiladi [2]. Bilim komponenti bo'lajak o'qituvchining chet tilini o'qitish bo'yicha nazariy asoslari, metodikalar, til o'rganish jarayoniga oid psixologik va pedagogik bilimlarini anglatadi. Bu komponent orqali u o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan asosiy ilmiy tushunchalarni egallaydi.

Ko'nikma komponenti amaliy-metodik faoliyatni bajarish, dars rejalashtirish, o'qitish metodlarini qo'llash, baholash, muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi faoliyatlar uchun zarur bo'lgan amaliy malaka va tajribalarni qamrab oladi. Yondashuv komponenti variativ, ya'ni moslashuvchan va zamonaviy talablar asosida o'qituvchining har bir talabaga

individual yondashuvi, darslarni loyihalash va tashkil qilishdagi uslubiy pozitsiyasini ifodalaydi. Bu komponent moslashuvchanlik va ijodiy qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Reflektiv komponenti o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash, o'z ustida ishlash va doimiy rivojlanishga intilish orqali kasbiy o'sishini ta'minlaydi. Refleksiya komponenti orqali tanqidiy fikrlash va o'zini baholash ko'nikmalari shakllanadi. Zamonaviy pedagogikada metodik tayyorgarlikni samarali tashkil etish va talabalarning ingliz tilini chuqur egallashini ta'minlashda bir necha asosiy yondashuvlar uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. Bu yondashuvlar tilni o'rgatishda nafaqat lingvistik emas, balki kognitiv, madaniy, shaxsiy va ijtimoiy omillarni ham hisobga olishni talab etadi. Jumladan, variativ, faoliyat, kompetensiyaviy, integrativ, reflektivga yo'naltirilgan yondashuvlar metodik tayyorgarlik asoslarini belgilab beradi. Har bir yondashuv ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va talaba faoliyatiga o'ziga xos yondashuvni shakllantiradi hamda ularni kompleks uyg'unlashtirish natijasida til o'rganish samaradorligi ortadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bo'lajak chet til o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda variativ yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. O.A.Kochergina ta'kidlaganidek, variativ yondashuv –

bu o'quv jarayonida bir nechta muqobil usullar, metodlar va vositalardan foydalanish orqali talabning individual xususiyatlariga, ehtiyojlariga va kontekstga mos ta'lim tashkil qilishga yo'naltirilgan yondashuvdir [3]. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv - bu o'quv jarayonining markazida amaliy ishlar, talaba va o'qituvchining faol o'zaro ta'siri turadigan, bilim va ko'nikmalarni faqat nazariy emas, balki bevosita amaliy mashg'ulotlar orqali rivojlantirishga asoslangan metodik tamyildir. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini passiv ma'lumot qabul qilishdan faol ijodiy faoliyatga o'tkazadi, bunda talaba o'z bilimini mustaqil izlash, tahlil qilish va qo'llash ko'nikmalarini egallaydi. V.A.Sukhomlinskiy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvni shunday ta'riflaydi: "Ta'limning asosiy vazifasi - shogirdni o'qish va o'rganishga faol, mas'uliyatli subyektda aylantirish, uning amaliy faoliyatda o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llay olishiga yo'naltirishdir". Shu boisdan ham, ushbu yondashuv pedagogik jarayonda ko'nikmalarni chuqur va mustahkam rivojlantirishga xizmat qiladi. J.Dewey faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvni ta'limda tajriba va faol o'zaro ta'sirga asoslangan pedagogika sifatida ko'radi. Unga ko'ra, o'qish faqat bilimlarni yodlash emas, balki ularni amaliy hayotda sinash va qo'llash faoliyatidir. Dewey nazariyasi bugungi kunda ham innovatsion ta'lim texnologiyalarining asosiy poydevorini tashkil etadi [9].

Shuningdek, L.S.Vygotskiyning ijtimoiy faoliyat nazariyasi ham faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi. U ta'kidlaganidek, talaba ijtimoiy muhitda faol ishtirok etib, o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi, o'rganish esa faol muloqot va amaliy ishlardan iborat jarayondir. Bugungi kunda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv kompetensiyalarni rivojlantirishda ayniqsa samarali hisoblanadi, chunki u talabani o'zini-o'zi rivojlantirishga, muammolarni hal qilishga, ijodiy va tanqidiy fikrlashga tayorlaydi [10].

Shu bois, zamonaviy ta'limda bu yondashuv asosida interfaol metodlar (TBL, CBL, loyiha asosida o'qitish va boshqalar) keng qo'llanilmoqda hamda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv talaba va o'qituvchining amaliy ishlar, dars jarayoni va o'quv faoliyati orqali bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, o'qitishning eng samarali metodik prinsiplaridan biridir. U pedagogik jarayonda nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni hayotiy va kasbiy faoliyatda qo'llashga yo'naltirilgan chuqur va integratsiyalashgan o'rganishni ta'minlaydi. Kompetensiyaviy yondashuv metodik tayyorgarlikni zamonaviy ta'lim talablariga moslashtirishda markaziy o'rin tutadi [4]. A.A.Verbitskiy, V.S.Idiatullin va E.V.Smironova fikricha, kompetensiyaviy yondashuv o'quv jarayonini bilim berishdan ko'ra amaliy faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Bunday yondashuvda ingliz tili bilim emas, balki kommunikativ, kasbiy va ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish vositasi sifatida qaraladi.

Metodik tayyorgarlik kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unlashgan holda talabalarda o'z fikrini xorijiy til orqali ifodalash, o'zini anglash, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, mustaqil va tanqidiy fikrlash, madaniy o'zaro tushunishni rivojlantiradi. Bu esa real kommunikativ vaziyatlarda til va mazmundan foydalana olish salohiyatini oshiradi [7].

A.A.Verbitskiy kompetensiyaviy yondashuv o'quv faoliyatini real hayotiy kontekstda tashkil etishga asoslanadi, ya'ni bilimlar amaliyot bilan chambarchas bog'lanishi kerak. V.S.Idiatullin bu yondashuv talabada kasbiy, kommunikativ, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi, ya'ni ta'lim natijasi - bilim emas, faoliyatga tayyorgarlikdir. YE.V.Smironova kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, talabning mustaqil

o'rganish va refleksiya qilish salohiyatini kuchaytirish orqali amalga oshiriladi [8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Integrativ yondashuv ta'lim jarayonida turli fanlar, bilimlar va metodlarni birlashtirib, talabalarga ko'p qirrali, tizimli va chuqur bilimlar berishga qaratilgan pedagogik prinsipdir. Ushbu yondashuv talabalarga faqat alohida fanlarni o'rganish bilan cheklanmasdan, ularning o'rtasidagi bog'liqliklarni anglash, kasbiy va hayotiy faoliyatda bir nechta bilim sohalarini uyg'un qo'llash imkonini beradi. A.V.Brushlinskiyning ta'kidlashicha, integrativ yondashuv - bu fanlararo, sohalararo bilimlarni birlashtirib, talabalarining dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni amaliyotga yaqinlashtirish uchun xizmat qiluvchi asosiy pedagogik prinsipdir. Shu nuqtai nazardan, integratsiya ta'lim jarayonining mazmuniy va metodik jihatdan yangi bosqichini tashkil qiladi [9]. J.Hattie o'z tadqiqotlarida integrativ ta'limning talaba faolligini oshirish, tushunishni mustahkamlash va kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, fanlararo integratsiya talabalarining murakkab masalalarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi [5].

N.M.Ahmedovanning nazariyasida ham integratsiya muhim o'rin tutadi, chunki o'rganish faqat fanlar doirasida emas, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda yuzaga keladi, bu esa o'zaro bog'langan bilimlar tizimini talab qiladi. Integrativ yondashuv ta'limning mazmunini kengaytirish, o'quv jarayonini real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirish hamda talabalarni murakkab vaziyatlarda mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Refleksiya o'z faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqish orqali o'rganishni chuqurlashtirishga yordam beradi va doimiy rivojlanish uchun poydevor yaratadi. Bugungi kunda u ko'plab ta'lim dasturlarida, jumladan chet tillarni o'qitishda ham qo'llanilib, talabalarining til va madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Refleksiv yondashuv - bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalarining o'z faoliyatini, bilim va ko'nikmalarini tahlil qilish, baholash, o'rganilganlarni anglab yetish va ularni takomillashtirishga qaratilgan metodik prinsipdir.

D.Schön refleksiv amaliyot nazariyasining asoschisi hisoblanadi. U o'qituvchi va mutaxassislarining o'z ishini ikki xil refleksiya orqali takomillashtirishi kerakligini ta'kidlaydi: «amaliyot paytida refleksiya» (reflection-in-action) va «amaliyotdan keyingi refleksiya» (reflection-on-action). Bu jarayonlar orqali pedagoglar o'z metodik faoliyatlarini doimiy ravishda takomillashtiradilar.

A.A.Musayeva ham refleksiv fikrlashni ta'lim jarayonining ajralmas qismi deb hisoblaydi. Unga ko'ra, haqiqiy o'rganish faqat tanqidiy fikrlash va o'z faoliyatiga qayta baho berish orqali yuzaga keladi. Shu sababli, ta'limda refleksivlik nafaqat bilim olish, balki o'rganilganlarni hayotiy amaliyotga tatbiq etishni ta'minlaydi. K. Rodgers refleksiv o'rganishni shunday ta'riflaydi: "O'rganish jarayonida o'z fikr va his-tuyg'ularini anglab, ularni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni hosil qilish".

**Tahlil va natijalar.** Bu yondashuv o'qituvchilarga o'z pedagogik tajribasini tahlil qilish va yangilash imkonini beradi. Refleksiv yondashuv metodik tayyorgarlikda muhim o'rin tutadi, chunki u o'qituvchilarni o'z faoliyatlarini doimiy tahlil qilishga, xatolarni aniqlashga va ularni bartaraf etishga yo'naltiradi. Shu bilan birga, talabalarda ham mustaqil fikrlash, o'z-o'zini baholash va o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bo'lajak chet til o'qituvchisining metodik tayyorgarligini variativ yondashuv asosida takomillashtirishda faollik, individualizatsiya, moslashuvchanlik va innovatsiya tamoyillari muhim didaktik asos bo'lib xizmat qiladi [6].

Taqdim etilgan model bo'lajak chet til o'qituvchisining metodik tayyorgarligini variativ yondashuv asosida takomillashtirish jarayonini tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etadi hamda moslashuvchan fikrlash, ijodkorlik, mustaqil o'qish va izlanish, muammolarni hal qilish kabi asosiy ko'rsatkichlar yagona integrativ yondashuvda uyg'unlashtiriladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz zarurki, variativ yondashuv asosida yaratilgan

ushbu pedagogik model o'quv jarayonida kommunikativ, kognitiv va ijodiy kompetensiyalarni parallel rivojlantirishga xizmat qiladi hamda talabalarni nafaqat metodik tayyorgarlik bilan, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llash malakalari bilan ham ta'minlaydi.

Natijada talabalar metodik tayyorgarlik jarayonida tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalar va kasbiy kommunikatsiyada samarali ishtirok etish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

#### ADABIYOTLAR

1. Arkhipova O.V., Shor Yu.M. The idea of education in the context of the post-nonclassical paradigm. Vestnik Gertsenskogo universiteta = Vestnik of Herzen University. 2013;2:3–12. (In Russ.) Accessed May 20, 2025. [http://lib.herzen.spb.ru/text/shor\\_4\\_13\\_3\\_12.pdf](http://lib.herzen.spb.ru/text/shor_4_13_3_12.pdf)
2. Doughty K.J., Hockett J.A. Differentiation: A Guide for Elementary School Teachers. American Institute for Research, Center on Great Teachers & Leaders; 2015. 48 p. 11.
3. Freeman J. Educating the Very Able: Current International Research. London: Routledge; 1998. 192 p. Accessed May 20, 2025. <https://www.routledge.com/Educating-the-Very-Able-Current-International-Research/Freeman/p/book/9780415182597>
4. Golub V.V., Golub E.V., Golub A.V. Accumulative function of pedagogical mentoring in the formation of individual professional and personal competence of a student. Problemy sovremennogo pedagogicheskogo obrazovaniya=Problems of Modern Pedagogical Education. 2024; 84 (3):127–130. (In Russ). Accessed May 20, 2025. <https://science-pedagogical.education.ru/article/download/16644/13743>
5. Hall T., Vue G., Strangman N., Meyer A. Differentiated instruction and implications for UDL implementation. National Center on Accessing the General Curriculum. 2019. Accessed May 20, 2025. <https://fles.eric.ed.gov/fulltext/ED535608.pdf>
6. Hodge K.A., Kemp C.R., Wong M.E. Inclusive Models of Gifted Education: Perspectives from Around the World. New York: Routledge; 2020. 332 p. Accessed May 20, 2025. <https://www.routledge.com/Inclusive-Models-of-Gifted-Education-Perspectives-from-Around-the-World/Hodge-KempWong/p/book/9780367352010>.
7. Randi, J., & Corno, L. (2005). Teaching and learner variation. In P. Tomlinson & P. Winne (Eds.), *Pedagogy: Teaching for learning*. Monograph series II: Psychological aspects of education (Vol. 3, pp. 47–69). Leicester, England: British Psychological Society.
8. Smale-Jacobse, A. E., Meijer, A., Helms-Lorenz, M., & Maulana, R. (2019). Differentiated instruction in secondary education: A systematic review of research evidence. *Frontiers in psychology*, 10, 2366.
9. Tomlinson, C.A., & Allan, S. D. (2000). *Leadership for differentiating schools and classrooms*. Ascd.
10. Tomlinson, C.A., & McTighe, J. (2006). *Integrating differentiated instruction & understanding by design: Connecting content and kids*. ASCD.